

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

2023-yil 8-dekabr, juma,
145-146 (23.864-23.865)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz


**Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan tamoyillarni to'liq ro'yobga chiqarishimiz va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim**

# O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

**Qadrli vatandoshlar!**

Siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni **8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni** bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Albatta, bu yilgi bayram ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma'no-mazmunga ega. Bu, avvalo, shu yil **30-aprelda** milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog'liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Hech shubhasiz, tom ma'noda xalqchil qomus bo'lgan **Asosiy qonunimiz** Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli **islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati** bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekistonning besh ustuni, ya'ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash, **davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo'lga qo'yish**ning ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik. Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, qisqa muddatda **30 dan ziyod** qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilganini ta'kidlash lozim.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili – bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni. So'nggi yillarda barcha islohotlarimizni ayni shu tamoyil asosida amalga oshirdik.

Yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi oxirgi 6 yilda **1,5 martadan ortiq,** tadbirkorlar soni **2 barobar** va sanoatdagi o'sish **40 foizdan ziyod** oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, joriy yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lar **134 trillion so'm**ni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan **5,6 barobar ko'paydi.**

Keng ko'lamli va tizimli islohotlarimiz natijalari xalqaro maydonda ham keng e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston **Korrupsiyaga murosasiz munosabat bo'yicha** xalqaro indeksda **32 pog'onaga, Matbuot erkinligi** indeksida **28 pog'onaga, Huquq ustuvorligi** indeksida **13 pog'onaga ko'tarildi.**

**Aziz do'stlar!**

Biz inson qadr-qimmati va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat'iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan **Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan tamoyillarni** to'liq ro'yobga chiqarishimiz va **hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim.**

Shu munosabat bilan oldimizda turgan eng muhim ustuvor vazifalarni qayd etmoqchiman.

***Birinchidan,*** Konstitutsiyamizda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, deyilgan. Ana shu qoidadan kelib chiqib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi.

***Ikkinchidan,*** Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qo'llash amaliyotiga o'tishimiz zarur. Shundagina xalqimiz Asosiy qonunimizning hayotbaxsh kuchi va ta'sirini teran his etadi.

Bu borada barcha davlat idoralari, jumladan, sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llashni joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'riladi.

***Uchinchidan,*** sud-huquq islohotlari yangi konstitutsiyaviy makonga uyg'unlashtiriladi. Bu jarayonda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

***To'rtinchidan,*** huquqiy ta'sir choralarini qo'llashda mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy prinsipni ro'yobga chiqarish maqsadida qonun hujjatlaridagi **150 dan ortiq** ana shunday choralar to'liq qayta ko'rib chiqiladi. Jumladan, ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va jazo turlarini o'zgartirish, fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy javobgarlikni bekor qilish borasida huquqiy islohotlar amalga oshiriladi.

***Beshinchidan,*** Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz bo'lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborimiz bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga, shuningdek, **Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani** va boshqa inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi.

***Oltinchidan,*** barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlari markaziy o'rinda turishi va xalqimiz farovonligi hamda qulay hayot kechirishini ta'minlash davlat organlari uchun bosh maqsad bo'lishi lozim. So'nggi yillarda shu maqsadda **300 ga yaqin** davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirildi va aholiga **50 milliondan ortiq** xizmatlar ko'rsatildi.

Shu bois, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud byurokratik to'siqlarni keskin qisqartirish hamda ushbu jarayonlardagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirishimiz kerak.

***Yettinchidan,*** biz **"Yangi O'zbekiston – ma'rifiy jamiyat"** konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta'lim masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Parlament tomonidan **Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha Milliy faoliyat dasturi** qabul qilindi. Asosiy qonunimizni o'rganishni bolalar bog'chasidan boshlash, barcha darajadagi ta'lim muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilari ushbu jarayonga to'liq jalb etilishi lozim. Shuning uchun **davlat xizmatiga ishga kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlar o'tkazish tizimi**ni amalda tatbiq etishimiz zarur.

***Sakkizinchidan,*** Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu masalada fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor beramiz. Xususan, so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarning soni qariyb **40 foizga oshdi** va ularni qo'llab-quvvatlashga **700 milliard so'mdan ortiq** mablag' yo'naltirildi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha aniq amaliy choralarni ko'rishda davom etamiz.

**Aziz va muhtaram vatandoshlar!**

Dunyoning turli mintaqalarida **ziddiyat va qarama-qarshiliklar, qurolli to'qnashuvlar** tobora avj olib bormoqda. Oldimizda yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Hozirgi o'ta murakkab va tahlikali vaziyatda barchamiz yanada birlashishimiz kerak. Tanlagan yo'limizdan qat'iy olg'a borishimiz zarurligini asrlar davomida ko'plab og'ir sinov va mashaqqatlardan munosib o'tgan mard va donishmand xalqimiz albatta yaxshi tushunadi.

Aminmanki, **O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai** bo'lib xizmat qiladi.

Biz Asosiy qonunimizga tayangan holda, mana shunday noyob **Konstitutsiyamizning asosiy ijodkori** bo'lgan **ko'pmillatli, bag'rikeng va olijanob xalqimiz** bilan birga ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!

**Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!**

Siz, aziz vatandoshlarimni Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, hammangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi**
**Prezidenti.**







# YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – HAYOTIY ZARURAT

**Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan tantanali marosim o'tkazildi.**
**Unda viloyat faollari, hokimlik va huquq-tartibot organlari xodimlari, harbiylar, nuroniylar va yoshlar vakillari ishtirok etdi.**

Tadbir qatnashchilari va ular timsolida barcha samarqandliklarni viloyat hokimi E.Turdimov tabrikladi.

– Bugun sizlar bilan keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga mos tarzda xalqimiz xohish-irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bayramini nishonlayapmiz, – dedi E.Turdimov. – Yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta'lim va ilm-fan sohalarini taraqqiy ettirish, xususiy mulk daxlsizligini yanada mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlarini aniqlashtirish yuzasidan muhim normalar belgilangan. Bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, uning normalari 275 tadan 434 taga ko'paydi. Natijada Konstitutsiyamiz ham mazmunan, ham shaklan mutlaqo yangilandi, Bosh qonunimiz chinakam xalq Qomusi, chinakam xalq Konstitutsiyasi bo'ladi. Unda O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi. Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g'amxo'rlik davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'ldi.

Kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlarni oldi. Umuman, Konstitutsiyadagi davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar uch barobar ko'paydi.

Tantanali marosimda samarqandlik taniqli san'atkorlar va yosh ijrochilar ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi.

Bayram tadbirlari barcha tuman va shaharlarda davom etmoqda. Bu yilgi tadbirlar doirasida tuman, shahar markazlarida "Konstitutsiya ko'chasi" tashkil etilib, Bosh qomusimizga oid ko'rgazmali vositalar joylashtirildi. Ta'lim muassasalarida "Mening Konstitutsiyam va davlat tilim" mavzuida ommaviy diktant, "Konstitutsiya o'quvchilar nigohida" mavzusida ijodiy ishlar tanlovi o'tkazildi.

**T.SIDDIQOV,**
**B.MUSTANOV (surat).**

*10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun*

# MADHIYA MAKTABLARDA HAM O'QITILADI



**Vatanni sevish davlat ramzlari va madhiyani o'rganishdan boshlanadi. Shu sababli maktablarda o'quv yili, ya'ni "Birinchi qo'ng'iroq" tadbiri madhiya bilan ochiladi.**

Shuningdek, har dushanba kuni ertalab maktablarda madhiya yangraydi. O'quvchilar madhiyamizni baralla kuylaydi. Maktabda bo'lib o'tadigan har bir tadbir yurt qo'shig'i bilan ochiladi.

Bu yilgi yangi darsliklarda, ya'ni 4-sinfning "O'qish" va "Musiqa" fanlari kitoblarida madhiyani o'rgatish berilgan. O'qish fanida o'quvchilar madhiyaning so'zlarini yoddan aytib bersa, musiqa fanida uni kuyga solib aytishni o'rganishadi.

**Dilfuza ISOQOVA,**
**Samarqand shahridagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

# MAHALLALAR OBOD BO‘LDI

**Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Cho‘yanchi, Oqdaryodagi Yangiqo‘rg‘on, Past Darg‘omdagi Olti qahramon va Ishtixondagi Chag‘atoy mahallalarida "Obod xonadon", "Obod ko‘cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamdagi bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.**

## YANGILANGAN YANGIQO‘RG‘ON



"Konstitatsiya haftaligi" doirasida ushbu mahallalardagi yangi obyektlar foydalanishga topshirildi. Oqdaryo tumani Yangiqo‘rg‘on mahallasidagi tadbirlar erta tongdan ''Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam'' shiori ostidagi yurish marafoni bilan boshlandi. Unda 4 mingdan ziyod aholi va 150 nafar harbiy xizmatchi ishtirok etdi.

Shundan so‘ng o‘nta obyekt foydalanishga topshirildi. Ularning biri mahalla fuqarolar yig‘ini binosidir.

- Shu paytgacha ijarada faoliyat yuritib kelardik, - deydi mahalla raisi Ulug‘bek Mustafoyev. – Yangi bunyod etilgan bino 6 ta xonadan iborat bo‘lib, barcha zarur jihozlar bilan ta’minlandi. Buning uchun 457 million so‘m mablag‘ sarflandi. Bu yerda mahalla faollari uchun yetarlicha sharoit yaratildi. Mingdan ziyod kitoblar bilan ta’minlangan kutubxona ham tashkil etildi.

Mahalladagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosi joriy ta’mirdan chiqarilib, zamonaviy ko‘rinishga keltirildi.

- Muassasamiz binosi 100 yillik tarixga ega, - deydi maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Hilola Jumayeva. – Shu paytgacha binoning issiqlik tizimi yaxshi bo‘lmaganligi sababli qish kunlari sovuq sinfxonalarda dars o‘tishga majbur bo‘lardik. Maktabdagi jihozlar ham talabga javob bermasdi. 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ evaziga amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari natijasida barcha mavjud muammolarga yechim topildi. Kutubxonamizga 2 mingdan ziyod badiiy adabiyotlar keltirildi.

Shuningdek, homiylarni jalb etgan holda 13 ta kam ta’minlangan oila xonadonlari ta’mirlab berildi hamda boquvchisini yo‘qotgan 3 nafar fuqaro uchun yangi uy qurildi.

Mahalla aholisi chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. 471 nafariga bepul dori-darmon, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning 5 nafariga aravacha, 9 nafariga protez-ortopediya vositalari berildi.

Xatlov natijasida aniqlangan 151 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta’minlandi.

Mahalla infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 2 ta transformator, 272 dona temir-beton ustun o‘rnatildi.

Ichki ko‘chalarning 3,8 kilometr qismiga asfalt yotqizildi, 7,1 kilometr qismi shag‘allashtirildi. 600 metr uzunlikdagi piyodalar yo‘lagi barpo etildi. Hududdagi 4 ta qabriston obodonlashtirildi.

Tadbir doirasida arzonlashtirilgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmarkasi ham tashkil etildi.

## CHO‘YANCHI HAM KO‘RKAM MASKANGA AYLANDI

Kattaqo‘rg‘on tumani Cho‘yanchi mahallasida "Obod xonadon", "Obod ko‘cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo‘yicha ishlar yakuniga yetdi.

Mahalla hududida dastur asosida 4 ta zamonaviy sport maydonchasi qurildi. Mavjud qabristonlarda obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Og‘ir sharoitda yashayotgan 12 fuqaroning uyi joriy va kapital ta’mirdan chiqarildi. 11 ta ko‘chada infratuzilma holatini yaxshilash maqsadida 8,4 kilometrlik yo‘l asfaltlandi, 12,9 kilometr yo‘lga shag‘al yotqizildi. 1,5 kilometr uzunlikda piyodalar yo‘lagi barpo etildi.

Shuningdek, 9,1 kilometr uzunlikda yangi elektr tarmog‘i tortildi, 50 dona yoritish moslamasi va 2 ta yangi transformator o‘rnatilib, mavjud 4 tasi ta’mirlandi. 184 ta eski simyog‘och temir-beton ustunlarga almashtirildi.




Joylarda gaz ta’minotini yaxshilash uchun 17 ta gaz taqsimlash punkti ta’mirlandi. Aholi talabidan kelib chiqib, 45 dona suyultirilgan gaz ballonlari yetkazib berildi. 2 kilometr uzunlikda yangi suv tarmog‘i tortilib, aholi xonadonlariga 50 dona suv hisoblagich o‘rnatildi. 8,5 kilometr optik aloqa kabeli tortildi. 4 dona chiqindi konteyneri o‘rnatildi.

Bundan tashqari, mahalladagi 8-maktab, 41-bog‘cha, "Cho‘yanchi" oilaviy shifokorlik punkti va 5-maktab filialida qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilib, zamonaviy ko‘rinishga keltirildi.

19 nafar fuqaro uchun 393,5 million so‘m imtiyozli kredit, 14 kishiga 137 million so‘mlik subsidiya ajratilishiga ko‘maklashildi. 14 nafar xotin-qizga tikuv mashinasi va 2 nafar fuqaroga asbob-uskuna va mehnat qurollari olib berildi.



## CHAG‘ATOY OBOD MAHALLA

Ishtixon tumanidagi Chag‘atoy mahallasida ham tantanali tadbirlar tashkil etildi.

“Konstitutsiya haftaligi” doirasida mahallada 15 ta obyekt, xususan, mahalla fuqarolar yig‘ini yangi binosi, hududdagi asfalt qilingan Nog‘orchi, Qizilqo‘loq, Chag‘atoy, Qo‘ng‘irot qishloqlarining ichki yo‘llari, mahalla tibbiyot punkti foydalanishga topshirildi. Xotin-qizlar bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazi, dam olish maskani, savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish obyektlari, uchta avtobekat, "Shodlik" oilaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat boshladi.

Tadbir so‘ngida ushbu dastur asosida amalga oshirilgan ishlarda faollik ko‘rsatgan quruvchi va ishchi-xodimlarga tashakkurnoma hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

## OLTI QAHRAMONDA YETTITA OBYEKT OCHILDI



Past Darg‘om tumanining Olti qahramon mahallasi ham obod maskanga aylantirildi. Hududda "Obod xonadon", "Obod ko‘cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish natijasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari yakuniga yetishi munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Uning doirasida mahallada 7 ta obyekt, jumladan, mahalla binosi, xotin-qizlar bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazi, aholi dam olish maskani, bitta markaziy ko‘cha, sektor shtabi binosi, 2 ta tadbirkorlik obyekti va aholiga xizmat ko‘rsatish shoxobchasi foydalanishga topshirildi.

Har bir tumanda o‘tkazilgan tadbirlar doirasida sport musobaqalari, tanlovlar, turli ko‘rgazmalar, savdo va bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari tashkil etildi. Tadbirlarda ''Nuroniy'' jamg‘armasi boshqaruvi raisi, O‘zbekiston Qahramoni Sodiqjon Turdiyev, respublika ishchi guruhi a’zolari, viloyat hokimligi vakillari, tuman sektor rahbarlari ishtirok etdi.

**To‘lqin SIDDIQOV,**
**Husan ELTOYEV (surat).**

# MAHALLIY KENGASH VAKOLATLARI KENGAYADI

**Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organi hisoblanadi. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mazkur organning o‘z o‘rni bor. Ammo shu paytgacha mahalliy davlat hokimiyati va vakillik organining vakolatlari aniq belgilanmagani bu borada turli tushunmovchilik va savollarni yuzaga keltirayotgandi.**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari” deb nomlangan yigirma birinchi bobida ham bir qator yangilik va o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, 120-moddada xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi belgilandi.

Shuningdek, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Albatta, ushbu me’yorlar Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilgan paytdayoq faol qo‘llab-quvvatlandi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining xalq deputatlari Kengashlariga boshchilik qilishi xalqaro va milliy huquq normalariga mos kelmasligi ta’kidlandi.

Umuman, keyingi yillarda yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar jarayonida ushbu masalaga ko‘p e’tibor qaratildi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, quyi bo‘g‘in rahbarlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yishda xalq deputatlari kengashlarining rolini oshirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Hokimlar va bir qator sohalar rahbarlarining o‘z faoliyati yuzasidan mahalliy kengashga hisobot berib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy budjetni tasdiqlash va undan foydalanishda ham kengash vakolatlari kengaydi. Xalq deputatlari Kengashlari kotibiyatlari tashkil etildi.

Ana shu vakolat va imkoniyatlar tufayli hududlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mahalliy kengashlarning o‘rni va ta’siri kuchaydi. Ilgari Kengash sessiyalarini hokimlik xodimlari tashkil etgan bo‘lsa, endilikda bu vazifani kotibiyat bajarmoqda va bu sessiyalar ishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Har bir masala birinchi navbatda doimiy komissiyalar va partiya deputatlik guruhlarida, kotibiyatda atroflicha ko‘rib chiqilib, pishiq-puxta tayyorlanib, so‘ngra sessiyada muhokama etilmoqda. Bu borada yaxshi tajriba shakllanganini ta’kidlash lozim.

Kengashga rais deputatlar orasidan saylanadigan bo‘lsa va hokim uning ishiga aralashmaydigan, aksincha, Kengash oldida hisobdor bo‘lsa, bu albatta, hudud rivojiga va qabul qilinayotgan qarorlar sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Konstitutsiyamizda tegishli mahalliy budjetlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash, hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitish xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari sifatida qayd etilgan (122-modda). O‘z navbatida tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajarish viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari hisoblanadi (123-modda).

To‘g‘ri, hozir ham mahalliy kengashlar hokimlarning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Ammo bir vaqtning o‘zida ham mahalliy ijro hokimiyati, ham kengash raisi bo‘lib turgan shaxsning kengash oldida hisob berishi mantiqsiz ko‘rinadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusiga ko‘ra, 2024-yildan, ya’ni mahalliy kengashlarga saylov o‘tkazilganidan so‘ng xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida, 2026-yil 1-yanvardan tuman va shahar Kengashlarida hokimlar va mahalliy kengashlar vakolatlari alohida bo‘ladi. Unga qadar albatta, bir qator qonun va kodekslarga o‘zgartirishlar kiritilishi kerak va ayni paytda bu jarayon davom etmoqda. Mahalliy kengashlar vakolati belgilanayotganda Kengashda doimiy ishlovchi deputatlar maqomi ham nazarda tutilsa, ayni muddao bo‘lardi. Chunki hozirda Kengash kotibiyatining sessiyalarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilish borasidagi faoliyati bilan yaxshi tanish deputat sifatida aytishim mumkinki, Kengashda maosh olib, doimiy ishlovchi deputatlar bo‘lsa, bu ish samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

**O‘ktam SAIDMURODOV,**
**xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.**



# Qo‘rg‘onchadagi o‘zgarishlar

**Joriy yilning iyun oyida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Urgut tumani Bahrin mahallasidagi Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida bo‘lib, hudud infratuzilmasi va aholi turmush tarzi bilan tanishgan edi. Qishloq ahli bilan suhbat davomida viloyat hokimi hududda obodonlashtirish ishlarini olib borish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini bildirib, ichki yo‘llar hokimlik ko‘magida asfalt qilib berilishini aytgandi.**

– Qishlog‘imizda ikki ming nafardan ziyod aholi yashaydi, – deydi Qo‘rg‘oncha mahallasida yashovchi mehnat faxriysi Abdizohir Ziyoyev. – Viloyat hokimi tashabbusi bilan qishlog‘imizda obodonlashtirish, qurilish-ta’mirlash ishlari olib borish uchun 870 million so‘m mablag‘ ajratildi. Natijada qariyb 1,5 kilometrga yaqin ichki yo‘llarga asfalt yotqizildi. Shuningdek, 1991-yilda jamoa xo‘jaligimiz markazida – Kenagas mahallasida Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan o‘rnatilgan ulug‘ mutafakkir haykali atrofi tuman hokimligi ko‘magida obod qilindi.

Bu xayrli ishlarda qishloq ahli ham faol ishtirok etdi. Davlat tomonidan shuncha imkoniyat, qulaylik yaratib berilayotganidan ruhlangan qo‘rg‘onchaliklar yashab turgan joylarini yana ham obod qilishga hissa qo‘shdi. Xususan, obodonlashtirish va qurilish-ta’mirlash ishlarini olib borish maqsadida saxovatli tadbirkorlar tomonidan 450 million so‘m mablag‘ ajratildi. Buning evaziga qishloqqa kirish qismidagi ko‘prik ta’mirlandi. Markaziy ko‘chada 86 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi, qabriston atrofi 800 metr devor bilan o‘raldi. Shuningdek, 180 metrli ayvon qurildi. Ayni paytda bu ezgu ishlar davom ettirilib, qishloqdagi nuroniylar choyxonasi ta’mirlanmoqda. Bu yerda ko‘rkam bog‘ tashkil etilyapti.

– Umummanfaatiga xizmat qiladigan ishlar hamjihatlikda bajarilsa, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, mehr-oqibatni mustahkamlaydi, – deydi Abdizohir Ziyoyev. – O‘zim ham ko‘p yil shu hududdagi Alisher Navoiy nomli jamoa xo‘jaligiga rahbarlik qilib, aholi bilan birga ko‘p ezgu ishlarga bosh qo‘shganmiz. Xudoga shukr, hozir ham qishloqdoshlarimiz, yaqin atrofdagi mahallalar ahli hurmatimni joyiga qo‘yishadi, bir gapimni ikki qilishmaydi. Odamlar ahil-inoq, oqibatli bo‘lgan joyda baraka bo‘ladi. Hamma ishni davlat qilib berishi kerak, deb qarab o‘tirish yaramaydi. Mana, viloyatimiz hokimi qishloqni obod qilish bo‘yicha harakatlarni boshlab berdi, yo‘limiz ravon bo‘ldi. Qolgan ishlarni yana hokimiyat zimmasiga tashlab o‘tirsak, bo‘lmasdi-da. El – katta kuch, hamma ishni bamaslahat, birgalikda amalga oshirishga kirishgandik, qishlog‘imiz obod bo‘lib qoldi. Yaxshi yashash uchun faqat orzu qilish emas, harakat, intilish ham kerak.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV,**
**“Zarafshon” muxbiri.**

# YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – XALQCHIL HUJJAT!

**Yangi O‘zbekiston sharoitida inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish zamon talabidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ushbu prinsiplarga qurilgani bilan ham muhim ahamiyatga ega.**



Ayniqsa, unda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlangani, aniqroq aytganda, O‘zbekiston mamlakatimiz tarixida birinchi marta ijtimoiy davlat sifatida Konstitutsiya darajasida belgilangani har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta’lim va kafolatlangan tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam hamda xizmatlar tizimi yaratilgan, ishsizlikdan himoyalash, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlat shakllanganidan dalolat.

Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta’minlash hisobga olingan. Davlatning fuqarolar bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha majburiyatlari, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlari, davlat ta’limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilishi, inklyuziv ta’limni ta’minlashi, o‘qituvchining maqomiga oid normalar Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Ijtimoiy davlatning vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi qoidalar o‘rnatildi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko‘paydi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida avvalo, inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ijtimoiy davlat prinsiplari dunyoning rivojlangan bir qator davlatlari konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Turkiya va Xorvatiya kabi davlatlar ham bugun ana shu yo‘ldan bormoqda.

Shuningdek, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq yangi qoidalar kiritilgani esa O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish yo‘lidan dadil ketayotganligini ko‘rsatadi.

Bilamizki, mazkur hujjatga Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi to‘g‘risidagi qoida kiritilgan bo‘lib, bu davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita qo‘llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishi va rioya etishini ko‘zda tutadi. Ma’lumki, inson tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga azaliy tegishlidir. Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilash bilan bir qatorda, ularni har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekanligining tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasida ushbu jihat ham alohida belgilangan bo‘lib, insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilgan va kafolatlangan. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta’minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo‘lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo‘lgan huquq, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo‘lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy va boshqa huquqlar kiradi. Ushbu qoida O‘zbekiston a’zo bo‘lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan. Jumladan, Italiya, Sloveniya, Chexiya va Ispaniya konstitutsiyalarida ham bu norma mavjud. 20-moddada “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”, degan insonparvar qoida kiritilgan. Mazkur qoidaga o‘xshash normalar O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual, Bojxona, Soliq kodekslari, shuningdek, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunlarda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, amaliyotda qonunchilikdagi nomuvofiqliklar iste’molchilar, soliq to‘lovchilar, tadbirkorlik subyektlari, jinoyat protsessi ishtirokchilari foydasiga talqin etildi. Endilikda ushbu qoidaning Konstitutsiyada mustahkamlanishi uning qo‘llanish doirasini yanada kengaytiradi.

Davlat va inson o‘rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar turli tushunmovchiliklarga, inson va fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligiga olib keladi. Bu esa inson manfaatlari ustunligi asosida “inson – jamiyat – davlat” tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sir emas, fuqarolarga tegishli uy-joylarning jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi jarayonida “uy-joyni buzish”, “snos” degan gaplar qulog‘imizga singib ketdi. Bu borada turli salbiy holatlar ortgani mazkur masalada qonunchilikni yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Pirovardida Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi aniq va ravshan belgilandi. Ya’ni, Konstitutsiyaning 47-moddasiga asosan, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.

“...Muallimning obro‘-e’tibori – bu avvalo, millatning, butun xalqning obro‘-e’tibori”dir. Shavkat Mirziyoyev ushbu oliy qadriyatni ilgari surar ekan, ustozga bo‘lgan yuksak ehtirom Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topishi zarurligini bildirib, o‘z takliflarini ma’lum qilgan edi. Natijada Bosh qomusimizga avval bo‘lmagan yangi modda (52-modda) qo‘shildi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etildi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi abadiylashtirildi. Muallim va ustozlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali mehnat faoliyati uchun munosib mehnat sharoitlari yaratilmoqda. Xususan, iste’mol kreditlari berilishi, huquq va manfaatlari ta’minlanayotgani, ayniqsa, adliya organlari tomonidan bu borada turli aksiyalar, loyihalar yo‘lga qo‘yilishi, amaliy huquqiy ko‘mak berilayotgani, olis hududlarga borib ishlayotgan yuqori malakali o‘qituvchilar uchun ustamalar belgilanishi shular jumlasidandir.

Jamiyatni inson, insonni esa ta’lim va tarbiya o‘zgartiradi. Millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish, avvalo, o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘liq. Shu bois mazkur norma uchinchi Renessansning tayanch ustunlaridan biri bo‘lgan o‘qituvchiga ramziy ma’noda “Millat bunyodkori” maqomini beradi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada sud va prokuratura organlari qatorida fuqarolik jamiyatining alohida bir instituti – advokaturaga ham alohida joy ajratilganligi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining yanada kafolatlanishiga zamin yaratadi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 24-bobi advokaturaga bag‘ishlanib, uning 141-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatishi, u o‘z faoliyatini qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asosan olib borishi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, 142-moddasida esa advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanishi va eng muhimi, advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlab qo‘yildi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartishlar, avvalo, inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy himoya va iqtisodiy farovonlik kafolatlari asosiy qonun darajasida mustahkamlangan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

**Salohiddin NURIYEV,**
**viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i.**

**O‘zbekiston mustaqillikning ilk yillarida milliy tiklanish davrini boshidan o‘tkazdi. 2016-yildan boshlab Harakatlar strategiyasiga asosan siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni ko‘zda tutuvchi tub islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Bu jarayonlar yangi mezonlar, talablar va qarashlarni shakllantirayotgani sababli konstitutsiyaviy islohotlar ham amalga oshirildi.**

# FAROVONLIK VA TARAQQIYOT POYDEVORI

Konstitutsiyaviy islohot bugungi va istiqboldagi muvaffaqiyatli, farovon hayotimizning zarur huquqiy kafolatidir. Xususan, «Natijaga yo‘naltirilgan samarali boshqaruv» tizimiga asoslangan davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimini takomillashtirish, hisobdorlik, ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta’minlashga ko‘mak beruvchi konstitutsiyaviy qoidalarni o‘rnatadi. Davlat boshqaruvida sifat va mazmun uyg‘unligini ta’minlash, natijadorlikni oshirishga qaratilgan ushbu o‘zgarishlar siyosiy tizim barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, iqtisodiy taraqqiy etish natijasida xalqimizning farovon hayot kechirishi, qulay va barqaror muhit yaratishga zamin yaratadi.



Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Bu jarayonda barcha fuqarolarning fikr-mulohazalarini tinglash va muloqot qilishning yangicha uslub, vositalaridan foydalanildi hamda tom ma’noda xalq qomusi shakllantirildi.

Konstitutsiya inson, jamiyat va davlatning bugungi va ertangi maqsad va irodasini ifoda etadigan muhim hujjatdir. Unda tarixan sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar o‘z ifodasini topgan. Asosiy qonunimiz eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bosh qomusimiz muqaddimasida nazarda tutilganidek, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayangan holda qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda eng avvalo, “Inson qadri uchun” g‘oyasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani katta ahamiyatga ega. Ilgari amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o‘zgartirish, davlat qurilishining yangi strategik maqsadi bo‘lgan ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi, avvalo, inson manfaati har narsadan ustun ekanligini o‘zida ifoda etdi.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U mazkur atamaning mezonlarini ishlab chiqib, davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va nochor sinflarni boy va qudratli darajaga ko‘tarish deb hisoblagan.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Yangi Konstitutsiyamizda “ijtimoiy davlat” tushunchasining mustahkamlanishi davlatning ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya prinsiplari asosida xalqchil boshqaruv tizimiga asoslanishidan dalolat beradi. Shuningdek, bu tushuncha zamirida davlat aholini ishsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda ham uning darajasida keskin tafovutning oldini olishga qaratilgan davlatning profilaktik asosiy vazifalarini amalga oshiradi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari muhim ahamiyat kasb etadi. Institutsional islohotlarimizning samarasi ijtimoiy fikrlarda namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan Bosh qomusimizning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

**O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi.**

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda.**

Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi” degan norma bilan fuqarolik jamiyati institutlariga ilk bor ta’rif berildi.

Bosh qomusimizning 115-moddasida esa “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta’minlash” hukumatning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi qayd etilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta’sirchan rolini oshirishi belgilangan. Shuningdek, ijro hokimiyati samarali boshqaruv tizim elementlarini shakllantirishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bosh maqsadi inson, xalq, millat va jamiyat farovonligiga qaratilgan. Bu jarayonda davlat fuqarolik xizmatida kadrlar masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, Konstitutsiyamizning quyidagi moddalarida bu o‘zining amaliy ifodasini topgan:

**2-modda.** “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”.

**36-modda.** “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini-o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

**37-modda.** “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar.

Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi”.

**42-modda.** “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi”.

Yurtimizning har bir fuqarosi kundalik hayotida o‘z haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Bosh qomusimizdan kuch-quvvat olib harakat qilishi, unga tayanishi lozimligini anglagan holda, huquqiy va iqtisodiy ongini yuksaltirib, farovon hayotini barpo etishida kamarbasta bo‘lishi lozim.

**Behzod RAHMATULLAYEV,**
**viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.**



# TENGLIK TAMOYILI AMALDA

**Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 25-moddasida “har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz o‘z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish” huquqiga egaligi belgilangan. Bunga o‘xshash normalar Italiya, Latviya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan.**

Anglashiladiki, davlat xizmatiga kirishda nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishi xalqaro hujjatlarda o‘z aksini topgan. Bir so‘z bilan aytganda, bu jarayonda odam ajratmasdan, barchaga bir ko‘z bilan qaraladi, “falonchining o‘g‘li”, “pistonchining jiyani” bo‘lganligi uchun unga ustunlik berish kabi holatlarga aslo yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Asosiy mezon professionallik talabi, ya’ni qanchalik darajada o‘z kasbini chuqur bilishidir.

Mazkur talablarga ko‘ra, yurtimizda davlat xizmati samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat idoralariga ishga qabul qilishning ochiq-oshkora tizimini joriy etish choralari ko‘rilmoqda.

Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar”, degan qoida belgilangan. Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi prinsipi 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda ham mustahkamlangan.

Mamlakatimizda davlat organlarida davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko‘tarilib borishni ta’minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari amal qilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, bu borada belgilangan tartib-tamoyillarga qay daraja amal qilinayotgani tegishli tartibda doimiy o‘rganib borilmoqda. Xususan, yaqinda viloyat sog‘liqni saqlash tizimi tashkilotlarida xodimlarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish holati monitoring qilindi.

Monitoring davomida 11 ta tuman tibbiyot birlashmasida 22 holatda mavjud vakant o‘rinlarga ochiq tanlovlarsiz hamda tanlov g‘olibi aniqlangunga qadar "vazifasini bajaruvchi" sifatida xodimlarni ishga olish holatlari aniqlandi.

Oqibatda Bulung‘ur, Jomboy, Narpay, Nurobod, Payariq, Paxtachi, Toyloq, Samarqand tumanlari va Samarqand shahar tibbiyot birlashmalarining 9 nafar rahbar xodimlari ma’muriy jarimaga tortildi.

Shuningdek, noqonuniy ishga qabul qilinganlar bo‘yicha 22 ta buyruq bekor qilinib, tashkilotlarning kadrlar xizmati (HR) bo‘limlari boshliqlariga intizomiy jazo chorasini qo‘llash bo‘yicha viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasiga taqdimnoma kiritildi.

Birgina shu misol Konstitutsiyada belgilangan tamoyil izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotganini, unda og‘ishishga yo‘l qo‘yilmasligini ko‘rsatib turibdi.

Umuman, yuqorida qayd qilingan huquqning berilishi fuqarolarga davlat xizmatiga kirishda ortiqcha talablar qo‘yilishining, korrupsiyaviy holatlar, mahalliychilik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik kabi illatlarning oldini oladi. O‘zbekiston fuqarolarining davlat xizmatiga kirishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi davlat xizmatining jozibadorligi va raqobatbardoshligi oshishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, davlat organlari faoliyati samaradorligi, xizmat ko‘rsatish sifati, davlat xizmatining obro‘si va professionalligini oshiradi.

**Azizbek IBRAGIMOV,**
**Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.**

# SHA’NIM VA QADRIM HIMOYACHISI

**Inson borki, atrof-muhitga qiziqish bilan boqadi, uning ichki dunyosi savollar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladi va aynan shu holat uni harakat qilishga, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, yashashga da’vat etadi, uning yashashi esa doimo tevarak-atrof hamda boshqa insonlar faoliyati bilan bog‘liq holda kechadi.**

Shunday ekan, insonning hayot tarzi ma’lum bir tartib-qoidalar asosida kechadi.

Demak, inson dunyoga kelar ekan, dastlab ona tabiatimizda uning yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, navbatdagisi esa insoniyatning uzoq yillik tarixi davomida shakllanib kelayotgan insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan tartib-qoidalarning oldindan o‘rnatib qo‘yilgan bo‘lishidir.

Bunday tartib-qoidalar esa halqning aql-zakovati, ko‘p yillik tajribasi asosida yaratilgan va biz unga “qonun” deb nom bergan hujjatlarda belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

Biz butun dunyoni, shu jumladan, mamlakatimizni doimiy taraqqiyotda ko‘rar ekanmiz, shunga mos ravishda qonunlarimizning ham takomillashtirilib borilishini hayotning o‘zi taqozo etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yish asnosida Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizni yanada takomillashtirish zarurati tug‘ildi va xalqimizning bevosita ovoz berishi orqali yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ilgarigisidan qanday afzalliklari bor? Ko‘pchilligimizda shunga o‘xshash savollar tug‘ilgan bo‘lishi tabiiy, albatta. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni ilgarigisi bilan taqqoslab, uning mazmunida aniqlikni, asosiy e’tibor inson, uning huquq va erkinliklari ta’minlanishi hamda himoyasiga qaratilganligini ko‘rdik.

Konstitutsiyamizning inson huquqlariga oid 20-moddasida “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Bunday qoida Konstitutsiyamizda ilgari yo‘q edi. Bu kabi holatlar fuqarolar bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda uchrab turar va natijasi ham ma’lum edi, ya’ni aksariyat hollarda masala davlat manfaatlarini ko‘zlab hal qilib yuborilar edi.

Konstitutsiyamizning ushbu moddasi fuqarolik sudlari tomonidan fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha chiqarilayotgan hal qiluv qarorlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanila boshlandi.

Konstitutsiyamizdagi fuqarolarning siyosiy huquqlari bilan bog‘liq yana bir jihatga e’tibor bersak. Muqaddam 32-moddada “...davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi” fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri sifatida o‘rnatilgan bo‘lsa, hozirda ushbu qoidaga o‘zgartirish va aniqlik kiritilib, endilikda Konstitutsiyamizning 36-moddasida “...davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi”, deb belgilab qo‘yildi.

Agarda biz Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini tushunib olsak, avvalo, nima qilishimiz mumkinu nima mumkin emasligini bilib olamiz. Shu bilan birga, nafaqat qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘yishdan o‘zimizni asrab qolamiz, balki zarur bo‘lganda, o‘z huquqlarimizni shaxsan o‘zimiz ham himoya qila olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

O‘z huquqini, shu bilan birgalikda, majburiyatini bilgan kishi hayotda adashmaydi, boshqalarga ham zarar yetkazmaydi, kelajak maqsadini ham aniq belgilay oladi.

**N.SAFAROV,**
**Nurobod tumani adliya bo‘limi boshlig‘i.**



**Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.**

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2-modda.**




# Shaxsiy telefon apparati ham daxlsiz

**Konstitutsiyaning 31-moddasi 2-qismida "Har kim xat-yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi", deyilgan.**

Modomiki, qo‘limizdagi shaxsiy uyali telefon apparatimizga nisbatan daxlsizlik huquqimiz Konstitutsiya bilan qo‘riqlangan ekan, nega endi ayrim idoralar hududi va binolariga kirishimizda, shuningdek, ayrim mansabdor shaxslarning qarshisida hozir bo‘lishimizda uni bizning erkimizga zid tarzda olib qo‘yilishi yoxud go‘yoki o‘z ixtiyorimiz bilan mas’ul xodimlar qo‘liga topshirib qo‘yishimiz talab etiladi?

Bunday rejim go‘yoki xavfsizlik chorasi sifatida talqin qilinib, ichki tartib sifatida joriy etilishi qaysi qonun hujjatiga to‘g‘ri keladi?

Shuningdek, ayrim tezkor xizmatlarning sud qarorisiz shaxsiy uyali aloqa vositangizni tekshirib ko‘rish uchun taqdim etishingizni talab qilishlari yoki kuch ishlatib, tortib olishlari ham yuqoridagi daxlsizlik huquqingizga daxl qilish hisoblanadi. Telefon apparatining olib qo‘yilishi xat-yozishmalar, telefon so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi shubha ostida qolishiga yoki oshkor bo‘lishining real xavfi yuzaga kelishiga sharoit yaratib berilishidir.

Kim kafolat beradiki, topshirilgan uyali aloqa vositasining xavfsizlik kodini buzib kirilmasligi va undagi shaxsiy ma’lumotlar, yozishmalar oshkor bo‘lmasligiga?

Demak, har qanday davlat idorasida va har qanday darajadagi davlat mansabdor shaxsining qarshisida fuqaroning shaxsiy uyali aloqa vositasining olib qo‘yilishi yoki topshirilishi talab qilinishi konstitutsion normaga zid va bunday ichki lokal hujjatlar huquqiy maqomi jihatidan Konstitutsiyadan ustun emasligi uchun ham o‘z-o‘zidan haqiqiy emas.

Ya’ni, ularga itoat etmaslik huquqiy javobgarlik keltirib chiqarmaydi. Faqatgina o‘sha davlat idorasi mansabdorining yoki davlat xizmatchisining xizmat vazifasini bajarishiga xalaqit qilinmasa yoki to‘sqinlik qilinmasa bo‘ldi.

**QOG‘OZDA QOLIB KETAYOTGAN NORMA**

**Maktab direktoridan:** *Meni tergov qilishdi. Ish yakunida ayblov e’lon qilib, jinoyat ishini sudga yuborish arafasida tergovchi rahbariyatimga sodir etilgan jinoyatlarning oldini olishga oid taqdimnoma yuboribdi. Endi tumandagi barcha maktab direktorlari ishtirokida muhokama qilinar ekanmiz. Bu qanchalik qonunga muvofiq?*

Bu aybsizlik prezumpsiyasiga zid.



Konstitutsiyaning 28-moddasi 1-qismida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi.

Qayd qilingan masalada sudning ayblov hukmi hali chiqmagan va qonuniy kuchga kirmagan. Bunday holda jinoyat sodir etganligingiz va uning kelib chiqish sabablari xususida taqdimnoma jamoangizda muhokama qilinishi amaliyoti Konstitutsiyada belgilangan aybsizlik prezumpsiyasiga ziddir.

Xo‘sh, JPKning 296-moddasidagi “Jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart”, degan talab-chi?

Bu Kodeks talabi bo‘lib, konstitutsiyaviy norma emas. Aslida bu modda talablari allaqachon qayta ko‘rib chiqilishi va Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilishi kerak edi.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning 16-moddasi 2-qismida birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Shunday ekan, bu vaziyatda konstitutsiyaviy normalarga amal qilinishi lozim bo‘ladi. Afsus, hali hozircha Konstitutsiyamizning aynan aybsizlik prezumpsiyasiga bag‘ishlangan normasi minbarlarda baland ovozda o‘qishgagina yaramoqda, xolos.

**Abdumalik ABDULLAYEV,**
**advokat.**

# BOSH QOMUS NIMA BERDI?

**Joriy yil 1-maydan kuchga kirgan Konstitutsiya butun mamlakat hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi bilan muhim ahamiyatga ega. Zotan, ilgari Asosiy qonun sifatida e’tirof etilsa-da, unda belgilangan normalarga nisbatan bunday munosabat yo‘q edi.**

Umuman, yangi tahrirdagi Konstitutsiya haqida gapirganda, u fuqarolarimizga farovon yashash, davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, ertaga emas, bugun yashash imkonini berdi. Misol uchun, Bosh qomusimizda har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uning qiymati hamda ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Bundan tashqari, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Mazkur tayomilning uzviy davomi sifatida “davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, degan norma kiritildi. Barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ham davlatning majburiyati sifatida qayd qilindi.



Bosh qomusimizning yangi tahririda inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Misol uchun, o‘lim jazosi konstitutsiyaviy darajada taqiqlanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Shuningdek, Asosiy qonunda shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutining qo‘llanish ko‘lami yanada kengaydi.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘zi-ga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

**Egamberdi OLMOSOV,**
**jinoyat ishlari bo‘yicha Payariq tumani sudi raisi.**




# SOLIQQA OID QOIDABUZARLIKNI XABAR QILGANGA 20 foiz

**Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida fuqarolar bir qator huquqbuzarliklar to‘g‘risida davlat organlariga xabar bergani uchun qonunchilikda mukofot puli to‘lash nazarda tutilgan. Mazkur tartib-taomillarning ayrimlari bilan quyida tanishish mumkin:**

### YO‘L HARAKATI QOIDALARI BUZILISHIGA OID XUQUQBUZARLIKLAR

Yo‘l harakati qoidalariga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ejarima portali orqali xabar beriladi va xabar bergan shaxsga bazaviy hisoblash miqdorining 5 foizi miqdorida mukofot beriladi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, huquqbuzarlik holatlari aks ettirilgan videoyozuvlarni yuborgan shaxslar huquqbuzardan undirilgan jarima hisobidan pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

Huquqbuzarlik holatlari to‘g‘risidagi videoyozuvlarni taqdim etgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yodda tuting: jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o‘rnatilgan videoregistratorlar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari aks etgan videoyozuvlar maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar holatlari qayd etilgan videoyozuvlarga tenglashtiriladi hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

### DARAXT VA BUTALARNI NOQONUNIY KESISH VA SHIKASTLASHGA OID HUQUQBUZARLIKLAR

Daraxtlar, butalar, boshqa o‘simliklar va nihollarni noqonuniy kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo‘q qilish yoki boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha huquqbuzarliklar haqidagi fotosurat va videoyozuvlar “Ekonazorat” portaliga yuborilganida bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida mukofot beriladi.

Bunda, huquqbuzarlik tegishli organlar tomonidan bevosita aniqlangandan so‘ng kelib tushgan xabarlar bo‘yicha rag‘batlantirish amalga oshirilmaydi.

Bundan tashqari, huquqbuzarlik holatlari to‘g‘risidagi xabarlar «102» tezkor qisqa raqami yoki «Ekonazorat» axborot tizimi orqali qabul qilinishi belgilangan.

### KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to‘g‘risida Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga xabar beriladi, huquqbuzarlik turidan kelib chiqib, bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravarigacha mukofot beriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qaroriga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha bo‘lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;

v) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

g) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko‘p bo‘lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n besh foizi miqdorida;

ko‘p yoki juda ko‘p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n foizi miqdorida.

Bunda pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi;

d) qidiruvda bo‘lgan shaxsning yashiringan joyi haqida xabar berganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari, ikki yoki undan ortiq qidiruvda bo‘lgan shaxslarning yashiringan joyi haqida bir vaqtda xabar berganligi uchun esa — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida.

### CHEK BERMASDAN SAVDO QILISHGA OID HUQUQBUZARLIKLAR

Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzganlik, naqd pul mablag‘lari yoki plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lov shakliga qarab narxlarni sun’iy ravishda oshirganlik yoki pasaytirganlik, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirganlik, shuningdek, identifikatsiya qilish vositalari bilan majburiy raqamli markirovka qilish nazarda tutilgan mahsulotlarda qalbaki markirovka qo‘llanilganlik yoki markirovka mavjud emasligi to‘g‘risida soliq organlariga maxsus dastur orqali xabar bergan jismoniy shaxslarga jarima miqdorining 20 foizi miqdorida mukofot beriladi.

Mukofot ma’lumot asosida o‘tkazilgan tekshirish yakuniga ko‘ra huquqbuzarlardan undirilgan jarima summasidan to‘lanadi.

Ushbu huquqbuzarliklar haqida “Soliq” mobil ilovasi orqali xabar berish mumkin.

### YERNI O‘ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLAB OLISHGA OID HUQUQBUZARLIKLAR

Yerni o‘zboshimchalik bilan egallab olish holatlari to‘g‘risida Kadastr agentligi va uning hududiy tuzilmalariga ma’lumot bergan shaxslar, bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

Jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan maxsus vakolatli davlat organiga taqdim qilingan yerga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi videoyozuvlarda sodir etilgan huquqbuzarlik holati, huquqbuzar shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniq aks ettirilishi hamda quyidagi talablarga mos bo‘lishi kerak:

videofaylning namoyish etish imkoniyati 720x480 pikseldan kam bo‘lmasligi;

videoyozuv davomiyligi 30 soniyadan kam bo‘lmasligi va 10 daqiqadan oshmasligi;

videoyozuv ma’lumotlarida sana va vaqt ko‘rsatilishi.

Rahbatlantirish fuqaroning uyali telefon raqami hisobiga yoki bank plastik kartasiga, yuridik shaxsning esa bankdagi hisobvarag‘iga maxsus vakolatli davlat organining budjetdan tashqari jamg‘armasi hisobvarag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lar hisobidan pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**Yoqubjon MARQAYEV tayyorladi.**

# KORRUPSIYA – ILLAT

## UNI QANDAY YO‘QOTAMIZ?

**Jamiyatda shunday illatlar borki, ma’lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo‘rlikdir. Aynan shu illat sababli ko‘plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani tarixdan ma’lum.**

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan O‘zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko‘rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli. Shu bois davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘z vakolatiga kirishishi bilan imzo chekkan eng birinchi hujjat “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bo‘ldi. Ushbu qonun me’yorlarining samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2017-yil 2-fevraldagi qarori bilan “2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi” qabul qilindi.

To‘g‘ri, 2021-yil yanvar oyida e’lon qilingan "Transparency International" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2020-yil bo‘yicha "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" reytingida O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 26 ball bilan 146-o‘rinni egallab, 7 pog‘onaga ko‘tarilgan. 2019-yilda 25 ball bilan 153-o‘rin, 2018-yilda 23 ball bilan 158-o‘rinda bo‘lgan.

Umuman, sanayversak bajarilgan ishlar salmoqli. Ammo biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo‘lib qolsak, to‘g‘ri bo‘lmasligi tayin. Zotan...

### RAQAMLAR SESKANTIRADI

Viloyat IIB xodimlari tomonidan ushbu yo‘nalishda o‘tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida joriy yilning 10 oyi davomida korrupsiyaga oid 134 ta (o‘tgan yilning shu davrida 118 ta) jinoyat aniqlangan.

Mazkur jinoyatlar sohalar kesimida tahlil qilinganda 82 tasi iqtisodiyot, 51 tasi ijtimoiy soha tashkilotlariga to‘g‘ri kelgan. Jumladan, 22 tasi kadastr, ekologiya va kommunal xizmat ko‘rsatish, 14 tasi tibbiyot, 12 tasi ta’lim sohasi vakillari tomonidan sodir etilgan.

Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish sifatida tavsiflanadi.

Ko‘rinadiki, bunda bir tomon emas, ikki, ayrim hollarda uch tomonning qonunga zid bo‘lgan manfaatdorligi bor. Bas shunday ekan...

### BERGAN, OLGAN VA VOSITACHIGA HAM JAZO BOR

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish - BHMning 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish — BHMning 30 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Pora olish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lishi — BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar pora olish:

a) takroran, xavfli retsidivist yoki ilgari jinoyat Kodeksning 211- yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda;

v) tamagirlik yo‘li bilan;

g) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa — 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek,

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa — 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Darvoqe, shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda 30 sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Pora olish-berishda vositachilik qilish, ya’ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish — BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqoridagi kabi vositachilikda ham 30 sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Bundan tashqari, pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish — bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda 30 sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.



### OMILLAR QANDAY KAMAYTIRILADI?

Bu borada so‘nggi qadamlardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan.

Farmon bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturini keltirish mumkin. Unda 44 ta chora-tadbir ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ijro muddatlari, mas’ul ijrochilar, ijro mexanizmi aniq belgilab qo‘yilgan.

Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida Agentlik tomonidan «Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri» (Reyestr) yuritilishi ta’minlandi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan vazirlik va idoralarning ochiqlik sohasidagi majburiyatlarga to‘liq rioya etilishi hamda amaldagi qonun hujjatlarining ijro holati muntazam o‘rganilib, monitoring qilib boriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari xatlovdan o‘tkazilib, korrupsiyaviy omillar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf qilish choralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida qonunchilikda korrupsiyaning oldini olish va oshkoralikni ta’minlashga oid bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi borasida tizimli monitoring tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Yashirin iqtisodiyot hamda korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish maqsadida barcha vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy hokimliklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan misollardan bu kabi choralar ish bermayotganiligini anglash mumkin. Xo‘sh, boshqa yo‘llari bormi?

**Xabar qiling, mukofotlanasiz!**

Korrupsiya haqida bu illatga qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari

- Bosh prokuratura ishonch raqami - 1007;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi - 1253;
- Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti - 71-233-1007.
- Telegramdagi @antikorbot manzili orqali xabar berish mumkin.

Korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyat haqida berilgan xabar uchun — BHMning 3 baravaridan 15 baravarigacha va undan ham ko‘proq miqdorda mukofot beriladi.

Bu o‘rinda gap mukofot va uning miqdorida ham emas. Aholida, yurtdoshlarimizda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, bu illatga qarshi birgalikda kurashishda.

Unutmang, korrupsiya bir tomonlama yuzaga kelmaydi - oluvchi va beruvchi tomon bo‘ladi. Qonunchilikka ko‘ra, ikki tomon ham o‘z xatti-harakati uchun javob beradi.

**Y.GADOYEV.**



# Qishloq xo‘jaligidagi ko‘rsatkichlar

**Joriy yilda viloyatimiz dehqonlari tomonidan 713 ming tonna g‘alla, 274,1 ming tonna paxta, qariyb 2 million tonna sabzavot, 760 ming tonna kartoshka, 172 ming tonna poliz mahsulotlari, 388 ming tonna meva, 637 ming tonna uzum, 3,3 ming tonna pilla, 338 ming tonna go‘sht hamda 1,5 million tonna sut tayyorlashga erishildi.**

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masala bo‘lib borayotgani hech kimga sir emas.

Shuning uchun iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ekinlarini yetishtirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Yerni haqiqiy egasiga berish, ayniqsa, mahsulot yetishtirishdan tortib uni sotishgacha bo‘lgan agrobiznesning yaxlit zanjirini o‘z ichiga qamrab olgan klaster modelini va kooperatsiya tizimini to‘liq yaratish choralari ko‘rilmoqda.

Bu borada Prezidentimizning paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirib, dehqonchilik qilish uchun aholiga ajratib berish to‘g‘risidagi qarori aholi bandligini ta’minlash hamda ularning daromadini oshirishga xizmat qilmoqda.

Viloyatimizda ham joriy yilda 19 ming nafar fuqaroga 7,5 ming gektar yer ajratib berildi va kelgusi yil 16 ming aholiga 6,1 ming gektar yer ajratish ko‘zda tutilgan. Natijada 97 ming nafar fuqaro doimiy va 79 ming kishi mavsumiy ish va daromad manbaiga ega bo‘ladi.

Agrar sohaning muhim tarmog‘i bo‘lgan paxtachilikda olib borilayotgan islohotlar natijasida joriy mavsumda ulkan natijalar qayd etildi.

Paxtachilikda o‘rtacha hosildorlik 37,5 sentnerni tashkil etdi.

Boshoqli don yetishtirishda rag‘batlantirish tizimi joriy etilgani ham ijobiy samara bermoqda. Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon, Narpay, Oqdaryo va Past Darg‘om tumanlarida o‘rtacha hosildorlik gektaridan 72-78 sentnerni tashkil etdi.

Keyingi yillarda meva-sabzavotchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yil boshidan buyon 173 million dollar qiymatdagi 179 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari Rossiya, Xitoy, Turkiya, Ukraina, AQSh, Polsha, Germaniya va Kanada kabi 57 davlatga eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini sifatli qayta ishlab, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish bo‘yicha joriy yilda qiymati 214 milliard so‘mlik 53,1 ming tonna quvvatga ega bo‘lgan 21 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash korxonalari barpo etildi.

Pillachilikda ilgari yiliga 4 marta hosil olish hech kimning xayoliga kelmagan edi. Bunday amaliyot joriy qilinishi evaziga joriy yilda 20 million dollarga teng ipak va ipak mahsulotlari eksport qilindi.

Joriy yilda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan umumiy qiymati 1,1 trillion so‘mlik 465 ta loyiha amalga oshirildi. Shuningdek, go‘sht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 36 ta yirik chorvachilik kompleksi ishga tushirildi.

Ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta’minlash maqsadida shu yilning o‘zida budjetdan 105 milliard so‘m, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun esa qariyb 13,2 milliard so‘m yoki o‘tgan yilgidan 2,1 barobar ko‘p mablag‘ ajratildi. Suvni tejash va undan samarali foydalanish maqsadida joriy yilda 26,7 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi va 2024-yilda ham 54,8 ming gektar maydonda yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi.

**Viloyat hokimligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.**

# DEHQON UCHUN YIL QANDAY O‘TDI?



**Viloyat tumanlarida qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali paxta, g‘alla, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va daromadni oshirish borasida qator ishlar amalga oshirildi.**

Jumladan, 2023-yil hosili uchun ekilgan 94,2 ming gektar g‘alla maydonlaridan jami 695,5 ming tonna hosil olinib, o‘rtacha hosildorlik 73,8 sentnerni tashkil qildi. O‘tgan yil bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, hosildorlik 6 sentnerga ortdi. Hosilning 264 ming tonnasi davlat ehtiyojlari uchun jamg‘arilgan bo‘lsa, 431 ming tonnadan ortiq don fermer xo‘jaliklari ixtiyorida qoldi. 6,5 ming tonna don klasterlar va fermerlar tomonidan otaliqqa olingan 26 mingga yaqin ehtiyojmand oilaga tarqatildi.

Davlat ehtiyojlari uchun jamg‘arilgan don uchun tonnasiga 3 million so‘mdan haq to‘landi. Bu esa fermer xo‘jaliklari va boshqa g‘alla yetishtiruvchilarning manfaati hamda daromadi oshishiga zamin yaratdi.

G‘alladan yuqori hosil olish uchun birinchi navbatda yerni ekishga tayyorlashdan hosilni yig‘ib olishga qadar har bir agrotexnik tadbirni amalga oshirishga ilm bilan yondashildi. Soha olimlari va mutaxassislari ishtirokida seminarlar tashkil qilindi. G‘alla hosildorligini yanada oshirish maqsadida 10,2 ming gektar maydon 17 ta lazerli tekislagichlar yordamida tekislandi. 135 ta zamonaviy seyalka orqali 47 ming gektar maydonda sara urug‘lar qadaldi, 790 gektar maydonda yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilindi. Bundan tashqari, zamonaviy biostimulyatorlar bilan 3 martadan ortiq bargidan oziqlantirish ishlari amalga oshirildi.

Viloyat bo‘yicha 128 ta (3 foiz) fermer xo‘jaligi 100 sentnerdan yuqori, 335 ta (7 foiz) fermer xo‘jaligi 90 sentnerdan 100 sentnergacha, 516 ta (11 foiz) fermer xo‘jaligi 80 sentnerdan 90 sentnergacha hosil oldi.

Misol uchun, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Jamolov Lutfullo dalalari” fermer xo‘jaligi bir gektardan o‘rtacha 107 sentner, Narpay tumanidagi “Sherdor Shonazar o‘g‘li” fermer xo‘jaligi 100 sentner, Ishtixon tumanidagi “Domla Abroriy” fermer xo‘jaligi 96 sentner, Paxtachi tumanidagi “Namunani zarli dalasi” fermer xo‘jaligi 92 sentnerdan g‘alla hosili oldi.

2023-yilda g‘allachilikda 368,4 milliard so‘m imtiyozli bank krediti ajratildi. Jami 1 trillion 758 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, 2 trillion 260 milliard so‘m daromad olindi. Rentabellik 28,6 foizni va sof foyda 502 milliard so‘mni tashkil etdi.

2023-yil hosili uchun 70,4 ming gektar maydonda g‘o‘za parvarish qilinib, agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida o‘tkazildi. Maydonlardan jami 274,1 ming tonna paxta terib olinib, o‘rtacha hosildorlik 38,9 sentnerni (o‘tgan yilga nisbatan 3,5 sentner ko‘p) tashkil qildi. Ayniqsa, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Ishtixon va Paxtachi tumanlarida paxtadan yuqori hosil olindi. “Kattaqo‘rg‘on g‘alla klaster” MCHJ, “Mirzayev Shuxrat Kenjayevich” fermer xo‘jaligi hamda “Maroqand Sifat Tekstil” MCHJ klaster korxonalari gektaridan 50 sentnerdan yuqori hosil olishga erishdilar.

Joriy yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida 36 trillion 374 million so‘mlik mahsulot tayyorlandi.

Mavsum boshidan 348,8 ming gektar maydonda (shundan, asosiy maydonga 295,5 gektar, takroriy maydonlarga 82 ming gektar, bog‘ qator orasiga 7,2 ming gektar) qishloq xo‘jalik ekinlari joylashtirildi. Ushbu maydonlardan 18 trillion 373 milliard so‘mlik mahsulot yetishtirildi.

Jami 22,1 ming gektar maydonda (shundan, 8132 gektar tomchilatib, 790 gektar yomg‘irlatib va 141 gektar diskretli sug‘orish) suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi hamda 13 ming gektar maydon lazerli yer tekislagich bilan tekislandi.

2023 yilgi mavsumda g‘alla va ertaki ekinlardan bo‘shagan 90,4 ming gektar maydonda takroriy ekinlar ekildi. Jumladan, 3872 gektar sabzavot, 15 ming gektar kartoshka, 35 ming gektar dukkakli va 36,5 ming gektar ozuqa ekinlari ekilib, o‘z vaqtida olib borilgan agrotexnik tadbirlar natijasida yuqori hosildorlikka erishildi.

Jumladan, 67,3 ming tonna sabzavot (174 sentner), 300 ming tonna kartoshka (200 sentner), 72 ming tonna dukkakli don (20,5 sentner) mahsulotlari yetishtirildi.

Bundan tashqari, yerdan unumli foydalanish, fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda aholi daromadini oshirish maqsadida 58,9 ming gektar maydonda to‘qsonbosti usulida sabzavot ekinlari ekildi.

**Tohir DUVLANOV,**
**viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi shu’ba boshlig‘i.**

## BU FAKT!

**Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 16 738,3 milliard so‘mni (2022-yilning mos davriga nisbatan 102,7 foiz) tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 47,4 foizga yetdi.**

# LOGISTIKA MARKAZLARI ISTIQBOLNI BELGILAYDI

**Joriy yilning 11 oyida viloyatimimizda qiymati 1,4 trillion so‘mlik mablag‘lar o‘zlashtirilishi evaziga 101 ta qayta ishlash, saqlash bo‘yicha investitsion loyihalar amalga oshirildi hamda 3780 ta yangi ish o‘rni yaratildi.**

Jumladan, quvvati 70 ming tonna bo‘lgan 92 milliard so‘mlik 61 ta qayta ishlash loyihasi ishga tushirildi. Natijada qayta ishlash quvvatlari meva-sabzavotchilikda 1173,8 ming tonna (+18 ming tonna), sutni qayta ishlashda 476 ming tonna (+4 ming tonna) va go‘shtni qayta ishlashda 48,2 ming tonna (+1 ming tonna)ga yetkazildi.

Bu hali rejalarning barchasi emas. Yil yakuniga qadar yana 35 milliard so‘mlik 30 ming tonna quvvatdagi 21 ta loyiha amalga oshiriladi va 520 ta ish o‘rni yaratiladi. Shu bilan birga, qayta ishlash darajasi meva-sabzavotchilikda 31 foizdan 43 foizga, sutni qayta ishlashda 31 foizdan 36 foizga hamda go‘shtni qayta ishlash 21 foizdan 30 foizga yetkaziladi.

Agrar tarmoqning rivoji bevosita logistika markazlarining tashkil etilishi bilan bog‘liq. Viloyatimizda agrologistika markazlarini tashkil etish, mahsulotlar realizatsiyasini to‘g‘ri tashkil etish borasida ishlar ancha avval boshlangandi. Hozirda viloyat bo‘yicha quvvati 209 ming tonna bo‘lgan 10 ta agrologistika markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu markazlar tomonidan o‘tgan yil 29 million dollarlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan bo‘lsa, joriy yilning 11 oyida bu ko‘rsatkich 31 million dollarga yetdi. Eksport hajmi o‘tgan yil bilan solishtirganda 2 million dollar o‘sishga erishildi.



2023-yilda Samarqand tumanida 15,5 milliard so‘m sarflanib, 3 ming tonna quvvatdagi zamonaviy agrologistika markazi ishga tushirildi va 30 nafar aholining bandligi ta’minlandi. Yana 1,2 milliard so‘m mablag‘ hisobidan saqlash quvvati 3,5 ming tonna bo‘lgan 3 ta sovutkichli omborxona loyihasi amalga oshirilmoqda. Natijada sovutkichli omborxonalar soni yil yakuniga borib 178 taga, quvvati 174 ming tonnaga yetkaziladi.

Kelgusi yil yakunigacha Bulung‘ur tumanida 33 milliard so‘m mablag‘ hisobidan 2 ming tonna quvvatga ega zamonaviy agrologistika markazi foydalanishga topshiriladi. Bu bilan markazlar soni 12 taga (+2 ta), quvvat jihatidan 214 ming tonnaga (+5 ming tonna) yetkaziladi. Shuningdek, 2025-yilda Jomboy tumanida Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 197 million dollar hisobidan 492 ming tonnalik yirik agrologistika markazi tashkil etiladi.

# Viloyatda qancha issiqxona bor?

**Bugun yilning to‘rt faslida ham ekinlardan hosil olish mumkin. Bunda issiqxona faoliyatini rivojlantirish aholi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.**

Bugungi kunda viloyatimizda 170 dan ortiq issiqxona bor va ularning maydoni 284,2 gektardan ortiq. Shundan, 46,7 gektariga pomidor, 11,9 gektariga bulg‘or qalampiri, 55,7 gektariga bodring, 35,7 gektariga limon, 1,6 gektariga gullar, 9,8 gektariga esa boshqa turdagi ekinlar joylashtirilgan.

Issiqxonalarda parvarishlanayotgan ekinlardan olinayotgan mahsulotlarni eksportga tayyorlashda albatta, ularning fitosanitar tozaligi muhim. Shu bois viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi hamda tuman bo‘limlari ma’sullari tomonidan issiqxonlarda doimiy nazorat tadbirlari olib borilmoqda.

Xususan, ekinlarni biologik himoyalash maqsadida feromon tutqichlar, axborot qutilari o‘rnatilib, issiqxona daftarlari yuritiladi va inspektorlar tomonidan doimiy nazorat tadbirlari olib borilmoqda.

Ekinlarni biologik himoyalashda entomofaglardan foydalanilmoqda. Tumandagi biolaboratoriyalar tomonidan bodring ekilgan issiqxonalarga 10,7 million dona oltinko‘z biomahsulotlarini tarqatish rejalashtirilgan.

**Baxtigul G‘ANIYEVA,**
**viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi axborot xizmati rahbari.**

**Bugungi kunda viloyatimizda 49 ta klaster korxonasi bor va ularga 196,3 ming gektar yer maydoni biriktirilgan. Jumladan, 12 ta paxta-to‘qimachilik, 16 ta g‘allachilik, 15 ta meva-sabzavotchilik, 5 ta kartoshkachilik, 1 ta dorivor o‘simlik yetishtiruvchi klasterlar faoliyat yuritmoqda.**

# Klasterlar – agrar sohaning ertasi

Paxtachilik sohasidagi tegishli qarorlar bilan hududlarda qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida har bir tumanda 3 tagacha paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish va fermer xo‘jaliklari ushbu klasterlar bilan paxta xomashyosini yetkazib berish bo‘yicha ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalarini tuzishi belgilab berildi.

Masalan, birgina Payariq tumanida bugungi kunda “Payariq klaster” MCHJ va “Samarqand cotton cluster SCC” MCHJlar faoliyat yuritib kelayotgandi. Fermer xo‘jaliklariga yanada qulay agrobiznes muhitini yaratish maqsadida ushbu tumanda uchinchi “Payariq yangi er Textile” MCHJ ham ro‘yxatdan o‘tkazilib, fermer xo‘jaliklari bilan ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalarini tuzmoqda.

2022-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 18 ta loyihaga umimiy qiymati 169,44 million dollar miqdoridagi mablag‘ jalb qilinib, 1,7 mingta yangi ish o‘rni yaratildi va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobar o‘sdi.

O‘tgan yil boshida viloyatda 13 ta meva-sabzavotchilik klasterlari mavjud edi va shu yilning o‘zida Payariq tumanida 2 ta (“Istiqlol klaster” MCHJ va “Gulobod dunyo klaster” MCHJ) uzumchilik klasterlari tashkil etildi. Natijada 15 ta meva-sabzavotchilik klasterlariga 23,1 ming gektar (2,9 ming gektar klasterda, 20,2 ming gektar 2759 ta fermer xo‘jaliklarida) maydon biriktirildi.

Klasterlar tomonidan qayta ishlash va saqlash quvvatlarini oshirish bo‘yicha qiymati 16,1 milliard so‘mlik 4 ta loyiha bajarilib, 61,3 milliard so‘mlik 0,7 ming gektar intensiv bog‘ va 92,4 milliard so‘mlik 1,6 mingga yangi tokzor tashkil etildi.

Bundan tashqari, viloyatda bugungi kunda 5 ta subyekt tomonidan 3700 gektar maydonda kartoshka va 1 ta subyekt tomonidan 119 gektar maydonda dorivor va ziravor o‘simliklar yetishtirilmoqda.

**Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi.**

*E’lon*

## DEBITOR VA KREDITORLAR DIQQATIGA!

**Past Darg‘om tumani hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasidan 2013-yil 26-martda 749 reestr raqami bilan ro‘yxatga olingan mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “PASTDARG‘OM QURILISH MOLLARI” savdo majmuasi (qisqartirilgan nomi: MCHJ “PASTDARG‘OM QURILISH MOLLARI” SM) ixtiyoriy ravishda tugatilmoqda.**
**Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e’tirozlar gazetada e’lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.**
**Korxonaning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Firdavsiy ko‘chasi, 84-uy.**
**Korxonaning soliq to‘laydigan identifikasion raqami (STIR): 302552300.**







**DA'VOLAR BO'LSA...**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Nazarov Maxmur Pirmaxmatovichga (2018-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.*

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ummatov Buta Mustafayevichga (2015-yil 4-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.*

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Kodirov Golibjonga (2023-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Abbasov Azimjon Azamatovichga (2022-yil 20-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-"J" uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Isamitdinova Tadjiga (1981-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.*

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xodjayev Kuralbay Naxalbayevichga (2022-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Raximov Tursunga (2009-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ishankulov Djaborga (2004-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Adjumerov Rasim Enverovichga (2023-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Dadoy Emir Veliga (2004-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muxtorova Kutfiya Giyasovnaga (2021-yil 24-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Makarova Stepanida Nikonorovnaga (2020-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.*

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mirzayev Axmatga (2004-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.*

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abduraxmanov Yaqubga (2001-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Nosirova Xamidaga (2004-yil 11-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Sultanov Mamadiga (1982-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Narziyeva Mubaro Ochilovnaga (2018-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.*

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahriyev Ulug'bek Nasriddinovich notarial idorasida marhum Eshmuradov Sharifga (2021-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahriyev Ulug'bek Nasriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

*Manzil: Samarqand shahri Garm ko'chasi, 1-uy.*

* * *

**BEKOR QILINADI**

Fuqaro Abduraupov Shoxrux Temurovichga qarashli Samarqand tumani Qoziariq mahallasida joylashgan uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami (kadastr raqami 14:12:06:01:02:0550) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi "STROY-TEK" xususiy korxonasining (STIR: 305352072) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

**TOPGANGA MUKOFOT!**

Fuqaro Umurzakova Manzura Xolmirzayevnaning xorijga chiqish pasporti Past Darg'om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99895-771-69-79.**



# Maktabda olgan bilim bilan

## talaba bo‘lish qiyin(mi?)

**Ayni damda bu savol ko‘pchilikni qiynayotgan, keng muhokamalarga sabab bo‘layotgan masala. Afsuski, bugungi kunda qo‘shimcha pullik to‘garaklarga qatnashmasdan turib, talaba bo‘lgan yoshlarni topish qiyin. Zarnews.uz telegram kanali uchun talabalar orasida videoso‘rov o‘tkazganimizda bunga guvoh bo‘ldik.**

- Maktabda olgan bilimim poydevor vazifasini o‘tagan, ammo o‘qishga kirish uchun yaxshiroq o‘quv markazida tayyorlanmasam bo‘lmasdi, - deydi talabalardan biri. – Ahamiyatlisi, keyingi yillarda oliy ta’lim muassasasiga kirish oson, u yerda o‘qish qiyin ekan. Zamonaviy tizimlar joriy etilib, o‘qimaydigan, o‘z ustida ishlamaydigan talaba oraliq va yakuniy imtihonlardan o‘ta olmasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu yaxshi, albatta. Turli korrupsion holatlarning oldini olib, talabani izlanishga undayapti.

O‘qishga kirish oson bo‘lgan davrda ham yoshlarimizning talaba bo‘lishi uchun maktabda olgan bilimlari yetarli emasligi achinarli hol. Ayrim ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilargina repetitorga qatnamasligi mumkin. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchi sinf o‘quvchilarining aksariyati pullik to‘garaklarda dars olmasa, talaba bo‘lishi qiyin. Sifatli ta’lim beradigan bepul qo‘shimcha to‘garaklari mavjud bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari umuman yo‘q, deyish ham noto‘g‘ri. Bunday ta’lim muassasalari bor. Viloyatimizning Oqdaryo tumanidagi ayrim maktablarni bunga misol qilsak bo‘ladi.

- Tumanimizdagi 56 ta maktabni o‘tgan o‘quv yilida 1638 nafar bitiruvchi tamomladi, - deydi tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi metodisti Dilfuza Arslonova. – Ularning 1438 nafari oliy o‘quv yurtlariga hujjat topshirib, 541 nafari davlat granti va to‘lov shartnoma asosida talabalikka qabul qilindi. Tumanimiz maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi bo‘yicha 28 foiz ko‘rsatkich bilan viloyatda ikkinchi o‘rinni egalladi.

Tumandagi 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabini o‘tgan o‘quv yilida 74 nafar yigit-qiz bitirib, 41 nafari oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirdi.

- Bitiruvchilarimizning 12 nafari ingliz tilidan xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo‘lgan edi, - deydi maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi Nargiza Mamayusupova. – Ular uchun o‘qishga kirishda aynan shu fandan imtiyoz berildi va barchasi nufuzli oliy o‘quv yurtlari talabasi bo‘ldi. Shogirdlarimning bunday yutuqqa erishishida mening ham hissam borligidan xursandman. Maktab ta’limi bilan o‘qishga kirish qiyin, degan gap qulog‘imizga ko‘p chalinadi. Ammo bitiruvchilarimizning aksariyati pul to‘lab, repititorga qatnamasdan, avvalo, maktab darslarida, qolaversa, darsdan keyin tashkil etilgan bepul to‘garaklarda olgan bilimlari bilan talabalikka qabul qilindi.

Maktabda ana shunday bitiruvchilar safini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Buning uchun o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yetarli sharoit yaratilishi zarur.

- Muassasamiz 960 o‘rinli bo‘lib, 1771 nafar o‘quvchi ta’lim oladi, - deydi maktab direktori Komiljon Berdiqulov. – Ularning sifatli ta’lim olishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qilyapmiz. “Tashabbusli budjet” loyihasining ikki mavsumida g‘olib bo‘ldik. Hozirgi kunda birinchi mavsumdan ajratilgan 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ evaziga 220 o‘rinli qo‘shimcha bino qad rostladi. Ikkinchi mavsumda g‘olib bo‘lib, qo‘lga kiritilgan 1 milliard 320 million so‘m mablag‘ evaziga yana bir bino qurilishi boshlandi. “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining tuman bosqichida birinchi o‘rinni egallab, 100 million so‘m, viloyat bosqichida g‘olib bo‘lib 200 million so‘m pul mukofotini ham qo‘lga kiritganmiz. Bu ham maktabimizda ta’lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Maktabda 114 nafar o‘qituvchi faoliyat olib boradi. Ularning 27 nafari oliy toifaga ega, 10 nafardan ziyodi xalq ta’limi a’lochisi. Shuningdek, bir nafar “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” unvoni, bir nafar “Do‘stlik” ordeniga sazovor bo‘lgan ustozlar ham bor.

- 43 yildan beri matematika va informatika fanlaridan dars beraman, - deydi Dilorom Mamasharipova. – Shu yillar davomida o‘quvchilarim fan olimpiadalarining viloyat va respublika bosqichlarida yuqori o‘rinlarni egallagan. Informatika fanidan xalqaro olimpiada g‘oliblari bo‘lgan shogirdlarim bor. Ular erishgan yutuqlar sabab “Shuhrat” medali, “Mehnat shuhrati” ordeni hamda “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” unvoni bilan taqdirlandim.

Bu maktab o‘quvchilari nafaqat fan olimpiadalari va tanlovlarida, balki sport musobaqalarida ham yuqori natijalarni qayd etmoqda. Maktabning voleybolchi yigitlari Besh tashabbus olimpiadasining viloyat bosqichida birinchi o‘rinni egallab, musobaqaning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Tumanda 52-, 37-, 33-umumta’lim maktablari bitiruvchilari o‘qishga kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha yuqori o‘rinni egallab turibdi. Bu ta’lim muassasalari jamoasi quyi o‘rinlarda turgan 6-, 25-, 42- va 50-umumta’lim maktablariga o‘rnak bo‘lyapti. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan ularning tajriba almashishlari uchun turli tadbirlar, amaliy seminarlar tashkil etilyapti.

**To‘lqin SIDDIQOV,**
**Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

# Muallim ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaydi

**Muallim ulug‘ zot, yuksak hurmat va ehtiromga munosib shaxs. Muallim turli ilmlar bilimdoni va ziyo tarqatuvchi bo‘lib, jamiyatda biz uni o‘qituvchi, murabbiy yoki ustoz deb ataymiz.**



Kimni haqiqiy muallim deb atash mumkin? Birinchidan, muallim butun borlig‘i bilan o‘z o‘quvchilarini sevishi, ulardan bilim va mahoratini ayamasligi hamda mas’uliyatini oliy darajada anglagan shaxs bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, o‘qituvchi o‘zining o‘quvchisi oldida odob-axloqi, nutqi va kiyinish madaniyati bilan ibrat bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, o‘qituvchi o‘qitayotgan o‘quvchisini eng kuchli kuzatuvchi-inspektor (tekshiruvchi, tahlilchi) deb bilmog‘i zarur. Chunki o‘quvchilar o‘z ustozlarini har tomonlama tahlil etadilar.

Ko‘p yillik mehnat faoliyatim va pedagogik tajribamga asoslanib shuni ayta olamanki, o‘qituvchi siyosiy, huquqiy va axloqiy jihatdan mukammal shaxs, o‘z fani bo‘yicha to‘liq va mukammal bilim egasi bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchisining psixologiyasi va uning oilaviy ahvolini a’lo darajada o‘rganishi va shunga qarab, har bir o‘quvchiga individual yondashishi zarur.

Men ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan jarayon deb bilaman va bunda o‘qituvchini asosiy mas’ul hisoblayman. Ota-onalar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y ham bola tarbiyasiga mas’ul, ammo bilim dargohida ta’lim va tarbiyani birgalikda uyg‘un olib borsakkina yosh avlodni yaxshi inson sifatida tarbiyalashimiz mumkin.

Haqiqiy o‘qituvchi o‘zining shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatidan ustun qo‘ymaydi. U faqat va faqat o‘quvchisining muvaffaqiyati bilan yashaydi. Bunday o‘qituvchiga o‘quvchisining ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy yoki ma’naviy sharoiti muhim emas.

O‘qituvchi faqatgina dars jadvalida belgilangan soatlar bilan cheklanmasligi, darsdan tashqari mashg‘ulotlar (to‘garaklar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, turli adabiy va badiiy tadbirlar)dan unumli foydalanib, ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini qidirmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchilariga hech qachon yolg‘on gapirmasligi va ularni aldamasligi kerak. U shogirdlarining kelajagini o‘ylab qayg‘uradigan, jamiyat va Vatanga kerakli serhosil bog‘ yaratuvchi bog‘bon, har qanday kasb egalari va turli rahbarlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan ulug‘ inson bo‘lmog‘i shart.

Ammo maktab, maktabgacha ta’lim muassasalari, oliygoh, kasb-hunar maktablari va ta’lim markazlarida faoliyat yuritayotgan murabbiy va muallimlarning hammasini ham haqiqiy ustoz deb hisoblash qiyin. Chunki ularning ichida ba’zilari shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatidan ustun qo‘yib, boshqalarni mensimaydigan holatlar ham kuzatiladi. Mansabparastlik va xushomadgo‘ylik balosiga yo‘liqqan kimsalar hech qachon tom ma’noda muallim bo‘la olmaydi.

Shuningdek, kasbi va sohasiga doir bilimlarga ega bo‘lmagan muallimlarni ham ustoz deb atash qiyin. Masalan, o‘z ustida ishlamaydigan, kun o‘tsa bo‘ldi, deydigan, pedagogika va psixologiyadan mutlaqo bexabar “o‘qituvchi”larni ustoz deyish mumkinmi? Bunday “ustoz”lar o‘zlarining kamchiliklari bilan o‘quvchilarni ma’nan sindiradilar.

O‘quvchi mavzuni eshitadi va ko‘radi, mavzu doirasidagi misollarni amalda tahlil qilib, yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lsagina, u darsni o‘zlashtirgan hisoblanadi. Agar o‘quvchi dars mavzusini tushunmasa, u bilan qo‘shimcha ravishda individual ishlash talab etiladi.

Har qanday boylik, pul, amal bilan ustoz degan ulug‘ va sharafli nomga ega bo‘lish mumkin emas. Shuningdek, o‘qituvchining orzu-havaslarini ro‘yobga chiqarish va moddiy ta’minotini yaxshilash uchun unga munosib maosh va ijtimoiy sharoit yaratilmog‘i zarur. Zero, moddiy jihatdan yaxshi ta’minlangan o‘qituvchi ta’lim sifatini oshirishga astoydil kirishib, yosh avlodning yetuk shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

**Murodqul MADIYEV,**
**mehnat faxriysi,**
**xalq ta’limi a’lochisi.**

**Ma’rifatning chegarasi nafs va uning istak-xohishidan xoli bo‘lishdir.**

**Tohir MAQDISIY.**

*Mutolaa*

# Urushlar – insoniyat tarixidagi qora dog‘lar

**O‘zim o‘qigan va meni ta’sirlantirgan, qalbimni hayajonga solgan asarni ko‘pincha atrofimdagi insonlarga gapirib beraman yoki shu asarni o‘qishni tavsiya qilaman. Albatta, bu holat kimgadir zerikarli tuyuladi, ammo yaxshi kitobni qadrlaydigan inson bo‘lsa, u ham o‘qib, asardagi voqealarni birgalikda muhokama qilish kishiga o‘zgacha zavq beradi, tafakkuringizni charxlaydi. Asar qahramonlarining qarama-qarshi taqdiri sizni chuqur mushohadaga tortadi.**



Xassos adib O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasini o‘qiganimda ana shunday holatga tushganman. Beixtiyor xayolimda asar muallifiga savollar beraman. Nega Umri xola fojiali o‘lim topishi kerak? Nahotki, farzand o‘z onasining qotiliga aylansa? Asar boshqacha yakunlanishini xohlayman. Qaniydi, buning iloji bo‘lsa...

Hikoyani o‘qib, bir necha kun uning ta’sirida iztirob chekdim. Ammo bu yoqimli iztirob bir paytning o‘zida ruhimni poklar, tafakkurimni charxlayotgan edi. Hajman kichkina hikoya juda katta asar mag‘ziga ega. Xikoyada keltirilgan voqealar - urush oxirlab qolgan davr, front ortida mehnat qilayotgan insonlar hayoti ko‘z oldingizdan kino lavhasidek o‘taveradi. Asarda sanoqli qahramonlar ishtirok etgan. Farzandini urushga kuzatayotgan ona, turmush o‘rtog‘idan qora xat kelgan ayol, otasiz qolgan bolalar, bularning bari butun bir urushning fojiaviy ko‘lamini, iztiroblarini ochib beradi.

O‘tkir Hoshimovning asarlarida, ayniqsa, urush haqidagi voqealarning asl mohiyati badiiy tilda mohirona ochib berilishi bilan yanada ta’sirchanligi oshadi. Asarni o‘qigan inson har qanday urushning oqibati odamlar hayotini izdan chiqarishi, uning asoratlari yillar davomida insoniyat uchun dog‘ bo‘lib qolishini his etadi.

**Nasiba MIRZAYEVA,**
**viloyat axborot-kutubxona markazi ilmiy metodika xizmati rahbari.**

# Farzandingiz sovg‘aning puliga “paqildoq” olsa...

**Yangi yil bayrami yaqinlashmoqda. Bayramda bolajonlar o‘zi istagan sovg‘ani olib, o‘rtoqlari bilan xursandchilik qilishni istaydi. Bu vaqtda “paqildoq”lar mavsumi ham avj pallaga kiradi. Ba’zan ota-onalarning e’tiborsizligi sababli bolalarning “paqildoq”lardan foydalanishi oqibatida bayram ko‘ngilsizlik bilan tugaydi.**



Bundan bir necha yil oldin Yangi yil bayrami arafasida bir tanishimning 10 yoshli o‘g‘li “paqildoq” o‘ynashi oqibatida nogiron bo‘lib qolgan edi.

Bayram arafasida “Pul bering, maktabdagi o‘rtoqlarim bilan Qorbobo sovg‘asidan olaman”, deb otasidan pul so‘ragan. Tanishim o‘g‘lim xursand bo‘lsin deb so‘raganidan ko‘proq pul bergan. Bungacha u bolaning maktabdagi bir o‘rtog‘i “paqildoq”ni maqtab, akasida yana borligini, pulini bersa, unga ham olib kelib berishini aytgan. Yosh bola qiziquvchan emasmi, rozi bo‘lib, pulini bergan va pirotexnika vositasini olgan.

Ushbu holat yuzasidan qonuniy chora ko‘rilgan, albatta. Ammo tanishim hozirgacha bu voqeada o‘zini ayblaydi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, mamlakatimizga olib kirish, tashish, saqlash va sotish taqiqlangan. Bunday harakat uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 185-1-moddasi hamda Jinoyat kodeksining 250-1-moddasida tegishli javobgarlik va jazo choralari belgilangan. Shunga qaramay, pirotexnika vositalarining savdosi bilan bog‘liq holatlar uchramoqda.

Xususan, viloyat bojxona boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil davomida pirotexnika mahsulotlarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida qiymati 80 million 313 ming so‘mlik 176 ming 414 dona pirotexnika vositasi daliliy ashyo sifatida ushlab qolingan. Shuningdek, joriy yilning o‘tgan davrida bir holatda 9 million so‘mdan ziyod pirotexnika vositalarining olib o‘tilishiga chek qo‘yilgan.

Yangi yil bayramida farzandingizga sovg‘a uchun pul berishdan avval undan nima olishini so‘rab ko‘ring!

**F.RO‘ZIBOYEV.**

Gazetaning navbatdagi soni 2023-yil 12-dekabr, seshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 466 nusxada chop etildi. Buyurtma 664. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: D.TO‘XTAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda